

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.B.Karabayeva

Prunus persica var. Nectarina o'simligi mineral va aminokislota tarkibi	109
	BIOLOGIYA

Sh.Q.Yuldasheva, A.Z.Rasuljonov

Vespidae oilasi vakillarini tutish va ularga tuzoqlar qo'yishning ayrim usullari	114
G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev	

Markaziy Farg'ona hududida qayd etilgan gerpetofauna (Reptilia)ning Chelonia va Serpentes turkumi sistematikasi, morfologiysi va tarqalish areali	119
---	-----

I.B.Isaqov, A.K.Xusanov, K.Zokirov, O.T.Sobirov, N.D.Ibroximova

Farg'ona vodiysida tarqalgan unsimon qurtlarning (Homoptera: Coccinea, Pseudococcidae) zoogeografiyasiga oid ma'lumotlar	128
--	-----

M.A.Mamasolieva, L.A.Gafurova, O.B.Sharipov

Sug'oriladigan o'tloqi alluvial tuproqlarni oksireduktaza fermentlar faolligiga kremniyli o'g'itlar ta'siri (Buxoro vohasi misolida)	135
--	-----

Y.Qayumova, X.Komilova

Farg'ona viloyati ichki suv havzalarida invaziv turlarining tarqalishi	142
--	-----

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaviy tur tarkibi	147
---	-----

A.E.To'Iqinov

Janubiy Farg'ona kanali algoflorasining 2023-yil yoz mavsumidagi sistematik tahlili	151
---	-----

S.M.Xaydarov, J.G'Raximov

(<i>L.Minor</i>)ning biologik, morfologik xususiyatlari va turlar tarkibi, erigan kislorod darajasini aniqlash	155
--	-----

G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev

Yozyovon tabiat yodgorligida qayd etilgan tangachalilar turkumi (<i>Squamata</i>) vakillarining sistematikasi	158
---	-----

M.A.Muqimov

Farg'ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan oddiy qirraqorin balig'i (<i>Hemiculter Leucisculus</i>)ning morfoekologik xususiyatlari	164
---	-----

M.M.Мирзахалилов

Некоторые морфобиологические показатели обыкновенной маринки (<i>Schizothorax eurystomus</i>) Шахрихансая	171
---	-----

GEOGRAFIYA**R.Y.Xoliqov**

Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	175
---	-----

Р.И.Халиков, И.Я.Зикиров

Роль климатических факторов в формировании горно-долинных парагенетических ландшафтов	179
---	-----

O'.B.Badalov

Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari	185
--	-----

O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov

Madaniy landshaft: umumiy g'oyalalar va tushunchalar taddiq etishdagi yondashuvlar	190
--	-----

H.A.Abduvaliyev

Aholi hududiy tashkil etilishini o'rganishning geografik yo'nalishlari	196
--	-----

ILMIY AXBOROT**O.Q.Abdullayev**

Jismoniy ta'llimda o'quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashning ahamiyati xususida	202
---	-----

H.Arabbo耶v

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashda tabaqalashtirilgan jismoniy ta'llim texnologiyasi va shart-sharoitlari	206
--	-----

QASHQADARYO VILOYATI REKREATSIYA-TURISTIK RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕКРЕАЦИОННО-ТУРИСТСКИХ РЕСУРСОВ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE EFFECTIVE USE OF RECREATIONAL AND TOURIST RESOURCES OF THE KASHKADARYA REGION

Badalov O'tkir Badal o'g'li¹

¹Samarqand davlat universiteti UF, g.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatining rekreatsiya-turistik resurslarini o'rganishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya sohasini rivojlantirish, rekreatsiya turizmi, mineral suvlar, rekreatsion obyekti, ekoturizm, reklama, mehmonxonalar, dam olish uylari va sanatoriylar.

Аннотация

Настоящая статья посвящена изучению рекреационно-туристических ресурсов Кашкадарьинской области. Основное внимание уделяется развитию туризма и рекреации в Кашкадарье, расширению рекреантного и туристического наплыva, результативности использования исторических, культурных памятников, рекреационных и оздоровительных достопримечательностей.

Abstract

This article is devoted to the study of recreational and tourist resources of the Kashkadarya region. The main attention is paid to the development of tourism and recreation in Kashkadarya, the expansion of the recreational and tourist influx, the effectiveness of the use of historical, cultural monuments, recreational and recreational attractions.

Kalit so'zlar: rekreatsiya, turistik resurs, sayohat, ekskursiya, rekreatsiya turizmi, mineral suvlar, rekreatsion obyekt, ekoturizm, reklama, mehmonxonalar, dam olish uylari va sanatoriylar.

Ключевые слова: рекреация, туристический ресурс, путешествие, экскурсия, рекреационный туризм, минеральные воды, рекреационный объект, экотуризм, реклама, гостиницы, дома отдыха и санатории.

Key words: recreation, touristic resource, travelling, excursion object, recreation tourism, mineral water, recreation object, ecotourism, advertisement, hotels, health resorts and sanatoriums.

KIRISH

Respublikamizning qadimiy va boy madaniy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarni tiklash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy dam olish maskanlarini barpo etish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotganini Qashqadaryo viloyati misolida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Kitob, Shahrisabz va Qarshi shaharlariiga yo'lingiz tushsa, ko'nglingizda ajib yuksalish, g'ururni his etasiz. Yangi sayyohlik yo'naliishlarini ishlab chiqish, sayyohlarning maroqli dam olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xorijlik sayyohlarga esdalik sifatida ramzi-timsoli bo'lgan sovg'alar ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish kabi muhim vazifalar viloyatda rekreatsiya va turizmnинг ya'nada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida rekreatsiya va turizmni birgalikda rivojlantirishda tabiat yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlar, ekotizimlarni muhofaza qilish, aholi va inson salomatligini tiklashda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, alohida hududlarning turistik va rekreatsion imkoniyatlarini baholash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish mexanizmini takomillashtirishning komplekslik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda [4; 5-46 b.].

Bugungi ijtimoiy hayotda aholining dam olishi, istirohat, sog'lomlashtirish va turistik obyektlaridan foydalanish imkoniyatlari kun sayin oshib, landshaft komplekslarining rekreatsion va turistik hususiyatlari, imkoniyatlari hamda salohiyatini aniqlash, ulardan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatini ham geografik o'rnini qulayligi, uning boshqa hududlarga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy tomondan tez rivojlanishi, madaniy landshaftlar, mevazor va archazorlaridan iborat tog'larida rekreatsiya-turistik

resurslardan foydalanishi uchun aholini dam olishi, sport bilan shug'ullanish, tabiat qo'ynda sayir qilishlari, tog'larda esa ov qilishlari uchun imkoniyatlari yuqoridir.

Binobarin, inson bo'sh paytlarida foydalaniladigan resurslardan to'g'ri foydalanilsa, jamiyatning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy taraqqiyotini puxta o'rganadi. Insonlarni dam olishi va tabiat qo'ynda ma'naviy-estetik hordiq chiqarishlari, turli xil kasalliklarni davolash, o'ziga xos turli tabiiy, kimiyoziy xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy omillardan foydalanish salohiyati katta. Shu sababli, tog' va tog'oldi hududlarida mineral suvlardan davolovchi maqsadda foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu hududlar o'zini obodligi, tabiiy, madaniy-tarixiy majmualarning darajasi va dam oluvchilarga ko'rsatilayotgan xizmat holatiga juda katta zarurat sezadi.

Prezidentimizning «Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risida»gi farmonida tabiat tomonidan yaratilgan noyob yodgorliklarni saqlash va ulardan turizm, rekreatsiya, tibbiyot va boshqa maqsadlarda oqilona foydalanish masalalari ham nazarda tutilgan. Viloyat hududining tabiiy resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda, rekreatsion-turistik obyektlar va turistik firmalar sonini ko'paytirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taminlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 3-fevraldag'i PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» Farmonlari, 2018-yil 6-fevraldag'i PQ-3509-son «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 7-fevraldag'i PQ-3514-son «Ichki turizmini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari, 2019-yil 18-iyuldag'i O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlari Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya cohasini yanada rivojlanishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Qaror va Farmonlarni qabul qilinganligi qisqa vaqt ichida Qashqadaryo viloyatining ko'pgina hududlaridagi tarixiy, diniy, buyuk siymolar qabrlari, masjidu-madrasalarining qaytadan tiklash va ta'mirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bevosita turistik obyektlarning ko'payishi va yaxshilanishiga, sayyohlarning dam olishi, ya'ni mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash davomida iste'mol predmetlaridan foydalanishga e'tiborni yanada kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turizm va rekreatsiya geografiyasining ilmiy nazarii masalalari bo'yicha mamlakatimizda M.R.Boltaboyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.S.Soliyev, A.X.Yusupov, M.R.Usmonov, M.M.Muhamedov, D.K.Usmonova, M.Hoshimov, A.Norchayev, B.Sh.Safarov, Z.Mahamatillayev, A.N.Nigmatov, A.A.Rafiqov, Sh.Azimov, A.Qayumov, X.Vahobov, A.Yakubov kabi iqtisodchi va geograf olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarda turizm va rekreatsiyaning turli masalalari bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Shuningdek, R.Usmonova, N.T.Shamuratova, A.Zokirov, O.X.Hamidov, S.B.Abbasov, Q.S.Yarashev, Sh.Xolmurodov, O'.B.Badalov va boshqalar ishlarida kengroq yoritilgan.

Vohalanki, Qashqadaryo viloyati landshaftlarini rekreatsiya maqsadida baholash bo'yicha R.Usmonova hamda Qashqadaryo viloyati turizm-rekreatsiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish bo'yicha X.Jumayevlar tomonidan kompleks o'rganish va baholash, turizm-rekreatsiya infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya sohasini jadal rivojlantirish, uning xalqaro turistik imidjini yuksaltirish, mintaqalarning turistik-rekreatsiya salohiyatini kuchaytirish va turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish, yangi turistik yo'naliishlari va majmualarini yaratish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, o'zining tabiatni, demografik va ishlab chiqarish salohiyati, milliy qadriyatlarini hamda hunarmandchiligi bilan yaxshi tanilgan Qashqadaryo viloyatining turizm rekreatsiya salohiyatini tadqiq qilish va baholash, hududlarning turistik infratuzilma tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamiz tog'li hududlarda rekreatsiya va turizmni istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "mamlakatimizning

GEOGRAFIYA

betakror tabiatni, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud" deb ta'kidlagan edilar [1]. Ya'ni, istiqbolli rekreatsiya-turizm sohasida turizm faoliyati subyektlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, mintaqalarning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinalarini tashkil etish hamda aholining bandligi va farovonligini oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [6; 323-327].

Respublikamiz hududlari, ayniqsa tog' va tog'oldi hududlari ekoturizm resurslariga boy davlatlar katorida turadi. Respublikamiz O'rta Osiyo davlatlarining o'zaro aloqalarini geografik jihatdan bog'lovchi hudud sifatida qaraladi [2]. Shu sababli respublikamizda ichki va tashqi turizmni rivojlatirishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Mana shunday hududlardan biri Qashqadaryo havzasining yuqori tog'li qismi hisoblanadi. Qashqadaryo havzasi geomorfologik jihatdan tog' va tekisliklardan iborat bo'lib, landshaftlarning zonal va vertikal tabaqlanishni, o'ziga xos issiqlik rejimi va namlanish sharoitlariga, relefiga va boshqa omillarga bog'iqliq [3; 22-27].

Bugungi kunda Jahan mamlakatlarining ko'pchiligidagi turizm mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib ulgurgani bejiz emas. Bunday mamlakatlarda iqtisodiy faol aholining 10-15% i turizm sohasida ish bilan banddir [8]. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham turizm salohiyatini yanada oshirishda o'zini noyob tarixiy-madaniy merosidan samarali foydalanishga, tarixiy arxitektura ansamblari va yodgorliklari holatini yaxshilashga, sayyohlar uchun mehmonxonalar va xizmat ko'rsatish obyektlari qurishga, diqqatga sazovor madaniy-tarixiy yodgorliklar bo'yicha zamonaviy sayyohlik yo'nalishlarini shakllantirish va joriy etishga, mintaqaning tabiiy, rekreatsiya salohiyatidan samarali foydalanish, transport infratuzilmasini rivojlanish, ko'rsatilayotgan xaridlar xizmati sifatini oshirish, shu asosida yangi ish o'rinalari tashkil etish va viloyat aholisining daromadlarini o'stirishga alohida e'tiborni qaratdi.

Natijada turistik loyihalarni birgalikda moliyalashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni, donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish ishlari amalga oshirila boshlandi. Masalan, 2023-yildan boshlab Kitob tumanidagi "Bashir" qishlog'i turizm qishlog'iga aylantirilib, sayyohlar sonini 700 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Qayd etilishicha, "Hazrati Bashir" qishlog'i Qashqadaryo daryosi bo'yida joylashgan. Hozirda qishloqda 20 dan ziyod oilaviy mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Qishloqda ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm rivojlangan. "Hazrati Bashir" ziyoratgohi ham joylashgan. Ziyoratgoh nomi shu joyda yashab o'tgan avliyo Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir (1368-1464) nomi bilan bog'iqliqdir [11]. Shu bilan birga ayrim turistik hududlarda, ya'ni, Kitob tumanidagi «Qaynar» va «Varganza» qishloqlari, Yakkabog' tumanida «Tatar» va Mirishkor tumani «Jeynov» turizm qishlog'lari zamonaviy talablarga javob beradigan turistik loyihalar asosida ta'mirlash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, Sohibqiron Amir Temur tug'ilgan Yakkabog' tumani Xo'ja Ilg'or qishlog'i sayyohlarni jalb etish maqsadida obodonlashtirildi, viloyatdagi tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarda ziyoratchi turistlarga xizmat ko'rsatuvchi «Halol turizm markazi» faoliyati yo'nga qo'yish ishlari olib borilib, ziyoratgohlar hududida targ'ibot - tashviqot forumlari, diniy musobaqalar va ziyorat festivallarini o'tkazishda amaliy ishlar olib borilmoqda [12].

O'tgan vaqt mobaynida Qarshi shahridagi Abu Ubayda al-Jarrah majmuasi, o'zbek hammomi me'moriy yodgorligi, Odina majmuasi, Sardoba, Qilichboy, Abdulazizzon madrasalari, Chiroqchi va Kitob tumanlaridagi Katta Langar ota masjidi va maqbarasi, Xo'ja ilmkoni xonaqoh majmuasi qaytadan kapital ta'mirdan chiqarildi [9]. Qarshi va Kasbi tumanlaridagi Xoja Shamsiddin Xalvoniy maqbarasi, Imam Muyin an-Nasafiy yodgorligi, Sulton mir Haydar majmuasida ta'mirlash-tiklash ishlari davom etmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, viloyatdagi o'ttizta tarixiy-madaniy obyektlar qayta tiklanadi va ushbu joylar kelajakda sayyohlarni qiziqarili maskanlariga aylandi.

Mirishkor tumanidagi Achinko'l suv havzasi atrofida dam olish maskanida baliq ovlash, qayiqda suzish xizmatlari, o'tovli oromgohlar qurish imkoniyati katta. Bugungi kunda Achinko'l suv havzasi qirg'og'ida "Biologik buyurtmaxona" barpo etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, Kitob davlat geologik hamda Hisor qo'riqxonalariga tashriflar bo'yicha dasturlar tayyorlash, Mingchinor qishlog'i hududida tog' chang'i bazasi va osma yo'l bunyod etish rejalashtirilgan [7; 137-139]. Bu ishlar o'z navbatida viloyatda turizm sohasini rivojlanish istiqbollarini belgilab berishda muhim omillardan biri sanaladi. Bu ishlar doirasida sayyohlik mahsulotlarini xorij bozorlariga chiqarish, yangi sayyohlik yo'nalishlari ochish, turistik xizmatlar

sifatini yanada oshirish ko'zda tutilgan. Chiroqchi tumanining tog'li hududlarida qad ko'tarib turgan tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, qadamjolar, masjid va maqbaralar sayyoohlar e'tiborini tortishi, tumanning turizm salohiyati rivojlantirish istiqbollini belgilaydi [13]. Shu sababli tuman turizm salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, viloyatda turistik infratuzilma, ya'ni zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari ko'payib borishi natijasida xizmat ko'rsatish sifati tobora yaxshilanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerga keluvchi sayyoohlar sonining ortishiga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda sayyoohlilik sohasini rivojlantirish, Qashqadaryo viloyatiga kelayotgan xorijlik sayyoohlar oqimini yanada ko'paytirish yuzasidan turizm infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sifatini yanada yuksaltirish, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirishda turizm talablariga javob beradigan zamonaviy maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini shakllantirish, yangi zamon talabiga javob beradigan mehmonxonalar va dam olish uylari, sanatoriya, savdo, restoranlar va boshqa obyektlarni qurish mintaqasi turistik resurslarini rivojlantirishda yanada chuqurroq ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi. Bunday obyektlarni barpo etishda hududning tabiiy va rekreatsiya resurslarini baholash, shuningdek, xaridlar tizimidan foydalanish imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Bunday tarixiy-tabiatning nodir yodgorliklari xorijiy sayyoohlarda juda katta ta'surot qoldirishiga shubhasizdir.

Qashqadaryo viloyatida madaniy etnografik turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hududdagi xalqlarning to'y marosimlari (qiz chiqarish, kelin keltirish, o'g'il to'yi, ko'pkari o'yinlari, kurash, xo'roz va qo'y urushtirish, Navro'z bayramlari, yer haydash, hosil bayrami va boshqalar) jahon xalqlarida katta qiziqish uyg'otadi. Xalqimiz tomonidan tayyorlanadigan shirin taomlar-palov, shashlik, manti, turli xil shirinliklar holva, parvarda, Qashqadaryo noni va boshqa milliy etnografik urf-odatlari ham xorijiy sayyoohlarni o'ziga jalb qiladi. Chet el sayyoohlarni qiziqtirish maqsadida turli bayram sayillar o'tkazilib kelinadi. Bu o'z navbatida viloyatda agroturizm sohasini yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlarida so'lim dam olish maskanlari mavjud. Bunday dam olish maskanlarida olti yarim ming nafarga yaqin o'g'il-qizlar ta'ilni tabiat qo'ynida o'tkazishadi. Shahrisabzning Miroqi qo'rg'onida joylashgan "Lochin" oromgohi yoz oylarida bolalarning shodon kulgisi va kuy-qo'shiqlari bilan yanada fayzli maskanga aylangan. Bu yerda Sho'rtan gaz-kimyo majmui jamoasining tashabbusi bilan o'ziga xos yangi va zamonaviy loyihadagi binolar, joylashishi va dizayni jihatidan rang-barang pavilyonlar, yuvinish xonalari, cho'milish havzalari bunyod etilib, maroqli dam olish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan [3; 22-27 b.].

Viloyat hududida juda ko'plab shifobaxsh mineral suv manbalari aniqlangan bo'lib, bugungi kunda ulardan 20 ga yaqini tadqiq etilgan. Davolash jihatidan karbonat angidrid, sulfidli, radonli va azot termal gazli suvlarga katta ahamiyat beriladi. Ya'ni, tekislik qismida joylashgan Maydajoy, Xo'jaquduq, Qorabayir, Janubiy Muborak ularning minerallashuv darajasi ancha yuqori (80 g/l gacha), tog'li hududlarda Ko'kbuloq, O'g'in, Qorabuloq, Haydarbuloq, Qaynarbuloq, Xo'ja Inkan, Kamol buloq va boshqa mineral bulqlarni mavjudligi ko'plab kurort-sanatoriya muassasalarini tashkil etish imkoniyatlarni yaratadi [5; 113-116 b.].

Bugungi kunda viloyat hududida 19 ta yozgi dam olish oromgohi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, Kitob tumanining eng so'lim, bahavo va tog'oldi Qaynar qishlog'i ham turizmni rivojlantirish uchun qulay maskanlardan biri sanaladi. Samarqand viloyati bilan chegaradosh bu qishloq tabiatini yuqorida turib tomosha qilish har qanday sayyoohga o'zgacha zavq-shavq va mazmunli hordiq hadya qiladi. Prezidentimiz yaratib bergen imkoniyatdan oqilona foydalanib, hudud tabiiy go'zalligini asrab qolgan holda bu yerni turizm manzilgohiga aylantirsak, mahalliy va xorijiy sayyoohlar uchun juda katta qulaylik yaratgan bo'lamiz. Belgilangan loyiha asosida sayyoohlilik obyektlari qad rostlasa, imkoniyatlarni yanada kengayib, Qaynar qishlog'i hududida kamida 1500 ta qo'shimcha ish o'rni yaratiladi [10].

XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rilib turibdiki, viloyatning rekreatsiya turistik resurslari imkoniyati juda yuqori. Hozirgi vaqtida ulardan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarda foydalanish va hududiy jihatdan

GEOGRAFIYA

samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratib, viloyatni iqtisodiy rivojlanishida katta zamin yaratishdan iboratdir.

Qashqadaryo vildoyatining tekislik - tog'li hududlarini bebaho tabiat, har xil kasalliklarni davolovchi shifobaxsh mineral manbalar, iqlim xususiyati va sport-sog'lomlashtirish joylari rekreatsion-turistik imkoniyatlarni yaratishda qulay hisoblanadi. Mintaqaning tabiiy sharoiti, ichki suvlari, iqlim va o'simlik dunyosining o'ziga xosligi ko'plab dam olish zonalari, sog'lomlashtirish oromgohlari qurishga sharoit yaratadi.

Tabiiy rekreatsion resurslarni baholash asosida istiqbolli turizmning funksional tizimi aniqlangan. Ushbu tizim asosida havza hududida yangi dam olish maskanlari va davolanish muassasalari (tibbiyot turizmi)ni barpo etish hamda istiqbolli turistik marshrutlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Qolaversa, uni taraqqiy ettirishga yetarli shart-sharoit mavjudligini hisobga olgan holda, rekreatsiya-turistik resurslarning barcha turlarini yo'lga qo'yish orqali aholining jismoniy, ma'naviy sog'lom bo'lishiga, ijtimoiy ahvolni yaxshilashga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Ёшлар овози. 2018 йил, 29 декабрь. № 148 (16305).
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 мартағи ПҚ-4247-сонли "Қўриқланадиган табият ҳудудлари соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори.
3. Абдуллаев С.И., Усманова Р. Қашқадарё ландшафтларини тасниф қилишнинг айrim масалалари // Жанубий Ўзбекистон табият манбаларидан оқилона фойдаланиш масалалари. -Т., 1997. -Б. 22-27.
4. Бадалов Ў.Б. Ўрта Зарафшон ҳавзасини рекреация-туристик ресурслари, улардан фойдаланишнинг географик асослари ва истиқболлари // География фанлари бўйича фалсафа доктори илм. дара. олиш. учун тайёр. Дисс. автореферати. -Самарқанд, 2020. -46 б.
5. Жумаев Х.Х., Бозорова С. Қашқадарё вилоятида даволаш-соғломлаштириш туризмини ривожлантириш истиқболлари. Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари Республика илмий - амалий конференцияси материаллари. Қарши, 2021. -Б. 113-116.
6. Ярашев Қ., Юсупов Б. Табиий муҳофаза этиладиган ҳудудлarda экотуризмни ривожлантириш масалалари (Ҳисор давлат қўриқхонаси мисолида). ЎзМУ хабарлари (3/2/1-табиий фанлар). -Тошкент, 2022. -Б.323-327.
7. Ярашев Қ.С., Юсупов Б.Б., Очилов С. Тоғ ва тоғолди ландшафтларида экотуризм ривожлантиришнинг айrim масалалари (Ҳисор давлат қўриқхонаси мисолида). Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари Республика илмий - амалий конференцияси материаллари. Қарши, 2021. -Б. 137-139.
8. Yarashev Q.S., Xasanov J.Yu., Qurbonova I.Z., Sadulloyeva L.K. World and uzbek experience in development of ecologic tourism //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 6,2021. <https://cibg.org.au>.
9. www.Qashqadaryo.uz.
10. www.xs.uz.
11. <https://sputniknews.uz/>.
12. www.yuz.uz
13. <https://chiroqchi.uz/>.